

ELEKTRON LUG‘ATLARNING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Abduvali Mamarajabov

TerDU o‘qituvchisi.

Tel: 99-423-19-97. Epochta: mamarajabov997@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14519679>

Annotatsiya. Dastlabki elektron lug‘atlarning vujudga kelishi va ularning imkoniyatlari. Lug‘at tuzish tamoyillari. Elektron lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj.

Kalit so‘zlar: lug‘at, lug‘at turlari, elektron lug‘at, mashina tarjimasi, avtomatik tarjima, lug‘at maqolasi.

THE GRADUAL DEVELOPMENT OF ELECTRONIC DICTIONARIES

Abstract. The emergence of the first electronic dictionaries and their capabilities. Principles of dictionary creation. The need for electronic dictionaries.

Keywords: dictionary, types of dictionaries, electronic dictionary, machine translation, automatic translation, dictionary article.

ПОСТЕПЕННОЕ РАЗВИТИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЕЙ

Аннотация. Появление первых электронных словарей и их возможности. Принципы построения словарного запаса. Потребность в электронных словарях.

Ключевые слова: словарь, виды словарей, электронный словарь, машинный перевод, автоматический перевод, словарная статья.

Hozirgi globallashuv asrida fanning barcha tarmoqlari o‘zini yangilab, zamon talablariga moslashib, rivojlanib bormoqda. Bu, xususan, leksikologiyada ham kuzatiladi. Lug‘atlarning kitob, qog‘oz (albatta, bu davrda qog‘oz bo‘lmagan) ko‘rinishlaridagi an’anaviy shakli bundan 4 ming yil muqaddam gloss, glosariy va vokabulariylar ko‘rinishida vujudga kelgan[2.3]. Birinchi tarjima lug‘at eramizdan oldingi XXV asrda qadimgi Shummer sivilizatsiyasi davrida yaratildi.

Shundan so‘ng Xitoyda mill. avv. XX asr, Qadimgi Misrda mill. avv. XVIII asrda tarjima lug‘atlar vujudga keldi. Bundan 2000 yil avval Mesopotamiyada tuzilgan ikki va uch tilli lug‘atlarning parchalari saqlanib qolgan[3.14]. An’anaviy shakldagi lug‘atchilikning paydo bo‘lishi uzoq davrlarga borib taqalsa-da, elektron lug‘atchilik tarixi unchalik katta emas.

Elektron lug‘atlarning dastlabki ko‘rinishini mashina tarjimasi deb belgilashimiz mumkin.

Bu kabi lug‘atlarni yaratish g‘oyasi XVII asrda fransuz olimi R. Deskart (1596-1650) va nemis olimlari G. V. Leybnist (1646-1716) qarashlarida ko‘zga tashlanadi. Faylasuf R. Deskart va G. V. Leybnistlar tomonidan jumla va so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini kodlash masalasi ilgari surilgan[1.8]. Mashinaning tarjima qila olishi haqidagi g‘oyani ingliz matematigi Ch. Bebbidj (1791-1871) 1836 — 1848 — yillarda raqamli analitik mashinalar ustida olib borgan ilmiy izlanishlarida qayd etgan[1.8]. Ch. Bebbidj izlanishlaridan qariyb bir asrdan keyin raqamli elektron mashinalar ixtiro qilina boshlandi. XX asrning 20 — 50 — yillarida Estoniyada A. Vaher, Fransiyada J. Astrounining nazariy qarashlarida bilingval lug‘atlardan foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan. Xususan fransuz olimi J. Astrouni “Mehaniq miya” deb nomlangan mashina tarjimasi ishlanmasi uchun patentga ega bo‘ldi [1.8]. Bu boradagi izlanishlarda rus ilmiy jamoatchiligi ham ortda qolmadi.

1933-yil rus olimi P. P. Simirnov Troyanskiy tomonidan ikki funksiyani o‘z ichiga olgan tarjima tizimi yaratildi. Bu tizim esperanto tili asosida ishlar edi. Lekin bu davrda mashina tarjimasi hali to‘laligicha shakllanib ulgurgan emasdi.

Mashina tarjimasining nisbatan mukammal ko‘rinishlari XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘la boshladi. Endi bu davrda g‘oyaxona Yevropa va Rossiyadan ko‘chgan edi. Mashina tarjimasi borasidagi izlanishlarda Amerika ustunlik qila boshladi. Bunga bevosita “Sovuq urush” ning ta’siri katta bo‘ldi. Ikki gegamon davlat (ikkinchi tomon Sobiq Ittifoq) nafaqat qurollanish poygasida, balki ilm-fanning barcha jabhalarida ham raqobatlasha boshladi. Mashina tarjimasi (ya’ni avtomatik tarjima) harbiy razvedka ma’lumotlarni tezkor ravishda tarjima qilish, matnni dekodlash uchun ham zarur bo‘lard. Ammo, XX asrning o‘rtalarida mashina tarjimasi o‘ziga yuklatilgan bu siyosiy vazifani to‘laligicha bajara olmadi,

Mashina tarjimasining rivojlanishida ENIAC (Electronic Numerical Integrator and Computer) larning kashf etilishi muhim hodisa bo‘ldi. 1945-yil AQSH armiyasining ballistik tadqiqot laboratoriyasida bu turdagi raqamli mashinalarning birinchisi yaratildi. Bu ixtiro IBM larning yaralishi uchun asos vazifasini o‘tadi. A.But va R.Richanslar tomonidan 1948-yil mashina tarjimasi bo‘yicha ilk tajriba sinovi o‘tkazildi. 1949-yilda amerikalik olim Uorren Uiver mashina tarjimasi tizimini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqdi hamda lingvistika, deshifrovka, programmalashtirish nazariyasi bo‘yicha mutaxassislarini hamkorlikka chorladi. Shundan so‘ng AQSHda mashina tarjimasi bo‘yicha kollaboratsiyalar, hamkorlik loyihalari yaratildi. Mashina tarjimasi bo‘yicha birinchi xalqaro konferensiya 1952-yilda Massachusetts texnologiya institutida o‘tkazildi [5.73].

1954-yilda AQSHning Jorjtaun universitetida dunyoda birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o‘tkazildi. U GAT tizimi (inglizcha «Georgetown Automatic Translation» birikmasining qisqartmasi) deb ataladi. Bu tajriba IBM – 701 rusumli tarjima qurilmasi (kompyuter)da amalga oshirildi. Qurilma 250 ta so‘zdan iborat 60 ga yaqin (jami 50 000 so‘z) ruscha gaplarni ingliz tiliga tarjima qildi[5.73]. Bu ishda P.Gavren, L.Doster, P.Sheridanlar ishtirok etdilar. Lug‘at “Dorster tajribasi” nomi bilan mashhur bo‘ldi.

Mashina tarjimasi bo‘yicha izlanishlardan Sobiq Ittifoq ham chetda qolmadi. 1955-yilga kelib sobiq ittifoqda I.S.Muxin, L.N.Korolev, S.N.Razumovskiylar boshchiligidagi olimlar guruhi BESM rusumli mashina qurilmasi yordamida inglizcha gaplarni rus tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirdi. Bu tajribaga I.K.Belskaya tomonidan ishlab chiqilgan inglizcha-ruscha tarjima algoritmi asos bo‘ldi. Shu yillarda Moskvada A.Lyapunov boshchiligidagi matematik va kibernetiklardan tashkil topgan guruh ko‘p aspektli lingvistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan inglizcha-ruscha avtomatik tarjima tizimi (ARAP-англо-русский автоматический переводчик)ni, Ittifoq Fanlar Akademiyasida Y. A. Motorin rahbarligidagi guruh inglizcha ruscha mashina tarjimasi dasturini, D.Y. Panov esa uning lingvistik ta’minotini yaratib berdi. Bundan tashqari shu vaqtlarda Y.A.Matorin rahbarligida mashina tarjimasi laboratoriyasi tashkil etildi[1.9].

Turkologiyada mashina tarjimasi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar L.Dorster nomi bilan bog‘liqdir. 1961-yil Dorster tomonidan yaratilgan ingliz-turk tarjima mashinasi 700 ta turkcha so‘zshaklni o‘ziga qamrab olgandi. Bundan tashqari bu lug‘at turk va ingliz tillaridagi ekvivalentliklarning asos va suffikslaridan iborat bo‘lgan[4.34].

Mashina tarjimasining keyingi davrlarida bu sohadagi kamchiliklar bartaraf etila boshlandi. Agar, 50-yillar soʻngigacha avtomatik tarjima soʻzma-soʻz amalga oshirilgan boʻlsa, endi bu usuldagi xatoliklar olimlarning diqqat markazida boʻldi. Bu muammoning yechimi haqida faylasuf Y. Bar-Xillel toʻxtalar ekan, buni omonimiya misolida tushuntirishga harakat qiladi va natijada “inson-tarjimon” tamoyilini ilgari suradi. Yaʼni mashina orqali qilingan tarjimaga inson analizining ehtiyoji borligini taʼkidlaydi.

REFERENCES

1. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik taminoti. Monografiya – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018. –188 b.
2. Берков В.П. Вопросы двуязычной лексикографии: Словник — Л., 1973.
3. Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. Вена –Харьков 1998. 160 с.
4. Мамедова М.Г, З.Ю.Мамедова З.Ю. Машинный перевод: эволюция и основной аспекты моделирования. Баку, 2005.
5. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari — T.: Akademnashr, 2011. — 160 b.